

**BOSHLANG‘ICH KASBIY TAYYORGARLIKDAGI TALIM-TARBIYA –  
ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA SAMARALI XIZMAT FAOLIYATINING ASOSI****Otayev Umidbek Matyoqubovich***O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti**O‘quv-uslubiy bo‘limi o‘qituvchi-metodisti kapitan*

**Annotatsiya:** *Maqolada ichki ishlar organlarida xizmatni yangi boshlayotgan xodimlar uchun boshlang‘ich kasbiy tayyorgarlikning asosiy yo‘nalishlari va ularning xizmat samaradorligidagi ahamiyati yoritilgan. Tayyorgarlikning ma‘naviy, huquqiy, jismoniy, maxsus va psixologik jihatlari tahlil qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** *boshlang‘ich tayyorgarlik, ichki ishlar organlari, huquqiy bilim, jismoniy tayyorgarlik, ma‘naviy tarbiya, maxsus tayyorgarlik, psixologik barqarorlik.*

**Аннотация:** *В статье раскрыты основные направления начальной профессиональной подготовки сотрудников, впервые поступивших на службу в органы внутренних дел, и её значение для эффективности служебной деятельности. Проанализированы духовные, правовые, физические, специальные и психологические аспекты подготовки.*

**Ключевые слова:** *начальная подготовка, органы внутренних дел, правовые знания, физическая подготовка, духовное воспитание, специальная подготовка, психологическая устойчивость.*

**Annotation:** *The article highlights the main areas of initial professional training for newly recruited employees in the internal affairs bodies and its importance in improving service efficiency. The training’s moral, legal, physical, special, and psychological aspects are analyzed.*

**Keywords:** *initial training, internal affairs bodies, legal knowledge, physical training, moral education, special training, psychological stability.*

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida huquq-tartibot organlarining samarali faoliyatini ta‘minlash, jamiyat xavfsizligini mustahkamlash hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish maqsadida ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar izchillik bilan davom etmoqda. Bu yo‘nalishda kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-apreldagi PQ–5076-son “Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori mazkur

yo‘nalishdagi islohotlarning huquqiy poydevori bo‘ldi. Ushbu qarorda ichki ishlar organlari uchun sifatli va zamonaviy kadrlar tayyorlash, kasbiy mahorati yuqori bo‘lgan xodimlarni tarbiyalashga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Shuningdek, mazkur qaror ijrosini ta‘minlash maqsadida Ichki ishlar vazirining 2021-yil 27-avgustdagi 310-sonli “Ichki ishlar organlarida uzluksiz o‘quv-karera jarayoni tizimini tashkil etish to‘g‘risida”gi buyrug‘i qabul qilindi. Mazkur buyruqqa muvofiq, ichki ishlar organlari faoliyatida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish hamda ularni lavozimga muvofiq rivojlantirishning bosqichma-bosqich va uzluksiz tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Boshlang‘ich kasbiy tayyorgarlik – ichki ishlar organlaridagi xizmatga birinchi marta qabul qilingan xodimlarda o‘z xizmat vazifalarini bajarish uchun zarur bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish hamda ularning maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lishini ta‘minlash bo‘yicha o‘quv tayyorgarligini amalga oshirishdan iborat.<sup>83</sup>

Ushbu tayyorgarlik nafaqat kasbiy bilimlarni o‘rgatishga, balki ichki ishlar xodimi sifatida shakllanishi uchun zarur bo‘lgan jismoniy, maxsus, psixologik va axloqiy tayyorgarlikni ham qamrab oladi. Tayyorlov jarayoni quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

Ichki ishlar organlarida xizmat olib boruvchi xodimlar nafaqat amaliy ko‘nikmalarga, balki chuqur kasbiy bilim va mustahkam huquqiy savodxonlikka ham ega bo‘lishi shart. Chunki ular bevosita fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish kabi mas‘uliyatli vazifalarni bajaradilar.

Boshlang‘ich kasbiy tayyorgarlik jarayonida xodimlarga ichki ishlar organlarining konstitutsiyaviy va normativ-huquqiy asoslari, ularning faoliyat yo‘nalishlari, xizmat vazifalari, vakolat doirasi va ularga yuklatilgan majburiyatlar keng qamrovda o‘rgatiladi. Xususan:

Jinoyat va ma‘muriy huquq normalari, jinoyat tarkibi, javobgarlik turlari, huquqbuzarliklarning oldini olish va ularni huquqiy baholash mezonlari, jinoyat va ma‘muriy ish yuritishda ichki ishlar organi xodimlarining ishtiroki, hujjatlarni rasmiylashtirish o‘rgatiladi.

Xizmat vakolatlari va ularni amalga oshirish tartibi – xodim qaysi holatlarda qanday chora ko‘rishi mumkinligi, qanday vositalar va usullardan foydalanishga haqli ekanligi haqida tushuncha beriladi.

Ushbu o‘quv yo‘nalishlari orqali xodimlarda quyidagi ijobiy natijalar

<sup>83</sup> Ichki ishlar vazirining 2021-yil 27-avgustdagi 310-sonli “Ichki ishlar organlarida uzluksiz o‘quv-karera jarayoni tizimini tashkil etish to‘g‘risida”gi buyrug‘i

- Har bir xizmat vazifasini qonuniylik tamoyillari asosida hal etish qobiliyati.
- Xizmat faoliyatida har qanday holatga huquqiy yondashuv bilan qarash va qonun doirasida qaror qabul qilish ko‘nikmasi.
- Huquqbuzarliklarga nisbatan qonuniy va asosli choralar ko‘rish malakasi.
- Fuqarolarning huquq va erkinliklarini hurmat qilgan holda xizmat olib borish madaniyati shakllanadi:

○ Shuningdek, xodimlarning huquqiy savodxonligi yuqori bo‘lsa, ularning xizmat faoliyatida xatoliklar sodir etish ehtimoli kamayadi, fuqarolar bilan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolar oldi olinadi, xizmatga bo‘lgan ishonch mustahkamlanadi. Shu sababli, huquqiy savodxonlikni oshirish boshlang‘ich tayyorgarlikning eng muhim va ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xizmat intizomi – ichki ishlar organlarida tartib va muvozanatning asosiy omilidir. Tayyorlov jarayonida xodimlarga xizmatga nisbatan mas‘uliyatli munosabatda bo‘lish, intizomiy talablarni bajarish, ichki qoidalar va etik me‘yorlarga qat‘iy amal qilish muhimligi tushuntiriladi. Bu holatda, ularning kasbiy sha‘ni, sadoqati va vatanparvarligi ham shakllanadi.

Boshlang‘ich kasbiy tayyorgarlik jarayoni ichki ishlar organlari xodimlarining professional faoliyatga tayyorgarligida muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu bosqichda xodimlarda kasbiy madaniyat, xizmat intizomi va etik me‘yorlarga rioya qilish bo‘yicha mustahkam asoslar yaratiladi. Mazkur yo‘nalish bo‘yicha "Kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksi" alohida modul sifatida o‘rgatiladi.

Tayyorlov jarayonida quyidagi jihatlarga alohida e‘tibor qaratiladi:

Kodeksning mazmun-mohiyatini chuqur o‘rganish xodimlarga kodeksning har bir moddasi va bandi izchil tahlil asosida tushuntiriladi. Har bir me‘yorning mazmuni, amal qilish doirasi va amaliy ahamiyati, xodimlar real xizmat holatlarida uchraydigan axloqiy muammolar va etik tanlovlarga duch kelganda, bu holatlar orqali kasbiy etikaga rioya qilishning zaruriyati va natijalari muhokamalari, xizmat intizomini buzish oqibatlari, intizomiy va ma‘muriy javobgarlikni yuzaga keltiruvchi harakatlar, ularning oqibatlari, qonuniy baholanishi va xodimning kasbiy faoliyatiga ta‘siri chuqur tahlil qilinib, axloqiy muammolarni hal qilish yo‘llari, turli murakkab va ziddiyatli vaziyatlarda kasbiy yondashuv, o‘dov-axloq me‘yorlariga mos qaror qabul qilish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Xodimda sabr, murosaliq va diplomatik yondashuv bo‘yicha malaka hosil qilinib, simulyatsion mashg‘ulotlar, Amaliy mashg‘ulotlar, rolli o‘yinlar va xizmat holatlarini modellashtirish orqali xodimlar kodeks normalarini hayotda qo‘llash bo‘yicha zarur amaliy tajribani egallaydilar. Bu esa nazariy bilimlarning real xizmatga moslashtirilishini ta‘minlaydi.

Ichki ishlar organlari xodimi shunchaki huquqni muhofaza qiluvchi emas, balki davlat va jamiyat oldida yuksak mas’uliyatni o‘z zimmasiga olgan, odobli, halol, sadoqatli va bilimdon shaxs bo‘lishi lozimligi. Shu bois, kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksiga qat’iy rioya qilish – ichki ishlar tizimining kuchli poydevori va jamiyat ishonchini mustahkamlovchi asosiy omil hisoblanadi. Mazkur kodeks esa xodimlar faoliyatining asosiy yo‘l-yo‘rig‘i, mezon va kasbiy odob ko‘zgusi bo‘lib xizmat qiladi.

Ichki ishlar xodimlarining xizmat faoliyati ko‘pincha jismoniy bardoshlilik va psixologik barqarorlikni talab qiladi. Shuning uchun boshlang‘ich tayyorgarlikda muntazam jismoniy mashg‘ulotlar, o‘zini himoya qilish texnikalari va stressga chidamlilikni oshiruvchi mashqlar o‘rgatiladi. Xodimlar og‘ir, noan’anaviy yoki xavfli vaziyatlarda tezkor va sovuqqon qaror qabul qilishga o‘rgatiladi.

Shu bois, boshlang‘ich kasbiy tayyorgarlik jarayonida jismoniy va psixologik tayyorgarlikka alohida e’tibor qaratilib. Muntazam jismoniy mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Ular yugurish, mashqlar majmuasi, chidamlilikni oshiruvchi sport mashg‘ulotlarini o‘z ichiga oladi. O‘zini himoya qilish texnikalari (qo‘l jangi, himoya usullari, quolsiz qarshilikka tayyorgarlik) o‘rgatiladi. Favqulodda holatlarda harakatlanish va boshqaruv bo‘yicha ko‘nikmalar shakllantiriladi. Bu xodimning har qanday sharoitda faol harakat qilish qobiliyatini mustahkamlaydi.

Psixologik tayyorgarlikda xizmatning ruhiy bosimi yuqori bo‘lgan sharoitlariga tayyorlash uchun Stressga chidamlilikni oshiruvchi mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Xodimlar og‘ir va noan’anaviy vaziyatlarda ruhiy barqarorlikni saqlashga o‘rgatiladi. Psixologik testlar va treninglar orqali o‘zini boshqarish, nizoli vaziyatlarda sovuqqon qaror qabul qilish, hissiy holatni nazorat qilish ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Jamoada ruhiy muvozanatni saqlash, to‘g‘ri muloqot qilish kabi ijtimoiy-psixologik yondashuvlar mustahkamlanadi.

Ichki ishlar xodimining jismoniy va psixologik tayyorgarligi — uning xizmatga yaroqliligini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir. Bunday tayyorgarlik xodimning har qanday holatda tezkor, aniq va qonuniy qaror qabul qilishiga, o‘zini va atrofdagilar xavfsizligini ta’minlashiga xizmat qiladi. Shu sababli, boshlang‘ich kasbiy tayyorgarlik dasturlarida bu yo‘nalishga chuqur yondashuv asosida muntazam e’tibor qaratiladi.

Bundan tashqari maxsus vositalardan foydalanish va ularni qonuniy asosda qo‘llash ichki ishlar xodimlari o‘z xizmat faoliyatida– qo‘l kishanlari, rezina tayoq, ko‘zdan yosh oqizuvchi gaz, elektroshoker va boshqalardan foydalanishga majbur bo‘lishi mumkin. Ushbu vositalardan foydalanishda qonuniylik, zaruriyat va muvozanat tamoyillari muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, tayyorgarlik davomida xodimlar ushbu vositalarning turlari, ulardan foydalanish tartibi, cheklovlari va huquqiy javobgarlik masalalari bilan batafsil tanishtiriladi.

Biroq bu vositalarni qo‘llash faqat zarur holatlarda, qonuniy asosda amal qilgan holda amalga oshirilishi lozim. Shu sababli, boshlang‘ich kasbiy tayyorgarlik bosqichida xodimlar quyidagi jihatlar bo‘yicha chuqur tayyorlanadilar, maxsus vositalarning turlari va xususiyatlari xodimlar har bir vositaning vazifasi, texnik tavsifi, ishlash printsipi va amaliy qo‘llash shartlari bilan tanishtiriladi. Ular qaysi holatda qanday vosita ishlatilishi mumkinligini aniq bilishi zarur. Foydalanish tartibi va qonuniy asoslari o‘quv mashg‘ulotlarida, maxsus vositalarni qo‘llash tartibini belgilovchi qonunlar va normativ hujjatlar o‘rganiladi, har bir vosita faqat qonunda belgilangan holatlarda va aniq protsessual asoslar mavjud bo‘lsa, qo‘llanishi mumkinligi tushuntiriladi. Maxsus vositalar — ichki ishlar xodimining xizmat qurollari sirasiga kiradi. Ularning to‘g‘ri, qonuniy va ehtiyotkorlik bilan qo‘llanilishi — jamiyatda adolat, huquqiylik va xavfsizlikni ta‘minlovchi muhim omildir. Shu bois, boshlang‘ich kasbiy tayyorgarlik jarayonida ushbu vositalardan foydalanishga doir bilim va ko‘nikmalar chuqur, tizimli va amaliy asosda o‘rgatiladi.

Shu bilan birga, Aholi bilan muloqotda axloqiy va kasbiy madaniyatni namoyon etish ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatining ajralmas va eng muhim jihatlaridan biri bu — jamoatchilik bilan to‘g‘ri va madaniyatli muloqot qilish qobiliyatidir. Chunki xodim har kuni aholi vakillari bilan bevosita aloqada bo‘ladi, turli ijtimoiy vaziyatlarda ishtirok etadi va odamlarda davlat organlari haqidagi tasavvurni shakllantiruvchi asosiy shaxsga aylanadi.

Shu bois, boshlang‘ich kasbiy tayyorgarlik jarayonida xodimlarga kommunikativ va axloqiy ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida e‘tibor qaratiladi. Xushmuomalalik va hurmat asosida muloqot qilishni xodimlar o‘quv mashg‘ulotlari davomida: fuqarolarga nisbatan doimo muloyim, ehtimomli va betaraf munosabatda bo‘lish, har qanday holatda ham o‘zini bosimli emas, balki tushunarli va xolis tutish; o‘z fikrini odobli, aniq va to‘g‘ri ifoda etish ko‘nikmalarini o‘rganadilar.

Kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishda samarali muloqot olib borish, faol tinglash, fikr almashish va muammoni aniqlash usullari o‘rgatiladi, ziddiyatli vaziyatlarda nizoni kuchaytirmasdan, murosali yechim topish bo‘yicha treninglar o‘tkaziladi, muloqotda tana tili, ohang, ko‘z bilan aloqa kabi noverbal signallarni to‘g‘ri qo‘llashga alohida e‘tibor qaratiladi.

Axloqiy me‘yorlarga amal qilishda xodimlar xizmat faoliyatida: adolat, halollik, xolislik, sabr-toqat kabi axloqiy tamoyillarga tayanishlari lozim, fuqarolar bilan har qanday vaziyatda ham etik normalarni buzmasdan, o‘z kasbiy sha‘nini saqlab qolishlari zarur, aholi orasida adolatli, insonparvar va mas‘uliyatli obrazni shakllantiruvchi harakatlar qilishga tayyor bo‘lishlari kerak.



Jamoatchilik ishonchini mustahkamlashda xodimlarning madaniyatli va odobli muomalasi: aholining ichki ishlar organlariga bo‘lgan ishonchini oshiradi, xodimning jamoada ijobiy obrazini shakllantiradi, fuqarolarni huquq-tartibot organlari bilan hamkorlikka undaydi, bu esa jamoat xavfsizligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Ichki ishlar organlari xodimi — nafaqat qonun ijrochisi, balki jamiyat oldida axloqiy va kasbiy namuna bo‘lishi kerak bo‘lgan shaxsdir. U aholi bilan har bir muloqotida davlatning yuzini ifodalaydi. Shuning uchun, xizmatga yangi qabul qilingan xodimlar uchun axloqiy madaniyat va kommunikativ salohiyatni shakllantirish — kasbiy tayyorgarlikning muhim va ajralmas bo‘g‘inidir.

*“Men Yangi O‘zbekistonning ichki ishlar organlari xodimlari — Vatanimizning asl o‘g‘lonlari sifatida zamonaviy bilimlarni egallagan, ma’naviy va ma’rifiy dunyosi boy, har qanday xavf-xatarga qarshi matonat bilan kurashishga tayyor xalqimizning chin ma’nodagi himoyachilari ekaningizga qat’iy ishonaman”<sup>84</sup>.*

Boshlang‘ich kasbiy tayyorgarlik — nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy mashg‘ulotlar, simulyatsiyalangan holatlar va jamoat tartibini saqlashdagi haqiqiy vaziyatlarga moslashtirilgan o‘quv jarayonlarini ham o‘z ichiga oladi. Bu esa xodimni real xizmat sharoitiga tayyorlab, unda mas’uliyat, intizom va xizmatga sadoqat tuyg‘usini shakllantiradi.

Ta’lim jarayoni davomida xizmatga yangi kirgan xodimlar nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham egallaydi. Bu esa ularni voqelikda yuzaga keladigan turli holatlarga tayyorlaydi. To‘g‘ri tashkil etilgan boshlang‘ich kasbiy tayyorgarlik natijasida xizmatchi o‘z vazifalarini mas’uliyat bilan bajaradi, jamoatchilik ishonchini qozonadi va ichki ishlar organlarining nufuzini oshirishga hissa qo‘shadi.

Uzluksiz o‘quv-karera tizimida boshlang‘ich kasbiy tayyorgarlik birinchi va eng muhim bosqich sifatida belgilangan. Bu tayyorgarlik kelgusida xodimning lavozimi oshishi, malaka oshirish kurslarida qatnashishi hamda xizmatda yuqori natijalarga erishishi uchun poydevor hisoblanadi. Ya’ni, boshlang‘ich kasbiy tayyorgarlik faqatgina “boshlanish nuqtasi” emas, balki butun xizmat davomida xodimning faoliyatini belgilab beradigan asosiy baza vazifasini o‘taydi.

Boshlang‘ich kasbiy tayyorgarlik – ichki ishlar organlarida xizmatni yangi boshlagan har bir xodim uchun mustahkam poydevor, xizmat yo‘lidagi ilk va eng muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu tayyorgarlik jamiyat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning

<sup>84</sup> Shavkat Mirziyoyev ichki ishlar organlarining 30 yilligi munosabati bilan yo‘llagan tabrigi.

oldini olish va xalqqa xizmat qilishdek yuksak vazifalarni sidqidildan bajaradigan haqiqiy professionallarni voyaga yetkazishda hal qiluvchi o‘rin tutadi.

Prezident qarori va vazirlik buyrug‘i asosida joriy etilgan ushbu tizim – davlatning huquq-tartibot organlari sog‘lom, bilimli, jismonan va ma‘nan yetuk kadrlar bilan ta‘minlanishiga qaratilgan uzviy islohotlarining samarali ifodasidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 15 apreldagi PQ–5076-son qarori “Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi PQ-10-son qarori “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”
3. Ichki ishlar vazirining 2021-yil 27-avgustdagi 310-sonli “Ichki ishlar organlarida uzluksiz o‘quv-karera jarayoni tizimini tashkil etish to‘g‘risida”gi
4. O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020 yil.
5. Mahmudov H.J. “Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida kadrlar tayyorgarligi”, T.: Akademya nashr, 2022.
6. Mirzaev Yu.N. “Kasbiy tayyorgarlik tizimida innovatsion yondashuvlar”, Toshkent, 2023.
7. IIV Akademiyasi o‘quv-metodik qo‘llanmalari. 2021–2024 yillar.